

Ruhiyat talqinlarida

2020-yil 26-noyabr kuni soat 13:30 da B-o'quv binosi Ma'ruzalar zalida "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti 1-kursga qabul qilingan talabalar bilan Institut psixologi Muhammedova Muhayyo Kamolxonovna bilan uchrashuv o'tkazildi. Tadbirda fakultet dekani R.Xakimov kirish so'zi bilan ochib berib, 1-kurs talabalarini Institut ichki-tartib qoidalari, fakultetda tashkil etilayotgan o'quv jarayoni mazmun-mohiyati, talabalarning odob-ahloq qoidalari to'g'risida tushuntirish olib bordi. Institut psixologi Muhayyo Muhammedova talabalarga psixologning vazifalari, psixologik treninglar, talabalar bilan individual suhbatlar o'tkazish tartiblari xususida maslahatlar va tushuntirish ishlarini olib bordilar. Tadbir qizg'in savol-javoblar asosida bo'lib o'tdi.



TIQXMMIt axborot xizmati